# XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING
# Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-62-103-11-154-K/23 Buvayda tuman hokimligi

## Buvayda tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga, Budjet kodeksining 99-moddasi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi 63-sessiyasidagi “Farg‘ona viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashi

**QAROR QILADI:**

**1.** Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasiga asosan ishlab chiqilgan Halq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2024-yilga Buvayda tumani mahalliy budjetiga viloyat mahalliy budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 148.7 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi hamda tuman mahalliy budjeti daromadlari 93.9 mlrd.so‘m va xarajatlari esa 242,6 mlrd.so‘m miqdoridagi prognozlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**3.** Qarorga asosan 2024-yilda:

a) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

b) Quyidagi soliq turlari tuman mahalliy budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- aylanmadan soliq;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;
- davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari;
- Boshqa tushumlar (Faqat 3 450 950 daromad kodi bo‘yicha)

v) Tuman mahalliy budjetiga quyidagi ulushlarda:

- qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

- yuridik shaxslarning yer solig‘i va mol-mulkiga solinadigan soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushgan tushumlarning 50 foizi;

- davlat budjetiga undiriladigan jarimalarning 30 foizi;

- jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foizi;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 50 foizi o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

**4.** Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yil uchun prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**5.** Tuman mahalliy budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**6.** Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg‘armalari mahalliy budjetning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2,1-mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini tuman budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishini ta’minlasin.

**7.** Qarorga ko‘ra 2024-yil uchun tuman budjetida aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 864,0- mln.so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**8.** Tuman mahalliy budjeti daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

**9.** Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy budjetning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

**10.** Tuman hokimligi hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini yetarli darajada rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta’minlash;

- mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarini moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar hokimliklar tomonidan majburiy

tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

- mahalliy budjetning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlariga ularning natijalarini joylashtirsin.

**11.** Tuman hokimligi budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanilishi hamda erishilgan natijalar Kengashga kiritib borilishini ta’minlasin.

**12.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **Odiljonovich I. B.**

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-103-11-154-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Buvayda tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari**

ming so'mda

| № | Daromadlar nomi | Buvayda tumani |
|---|---|---|
| **I.** | **Tartibga soluvchi daromadlar** | **37 418 000** |
| 1 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | *37 418 000* |
| 2 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | *0* |
| **II.** | **Biriktirilgan daromadlar** | **56 506 100** |
| | **To‘liq tuman mahalliy budjetiga** | **43 349 000** |
| 1 | Korxonalar aylanmasidan soliq | 12 877 000 |
| 2 | Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 850 000 |
| 3 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 12 810 000 |
| 4 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 16 705 000 |
| 5 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 107 000 |
| | **Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar** | **13 157 100** |
| 1 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq | *0* |
| 2 | Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i | *3 736 800* |
| 3 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | *2 153 500* |
| 4 | Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i | *3 698 000* |
| 5 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | *978 000* |
| 6 | Jarimalar | *2 590 800* |
| **III.** | **Mahalliy budjet daromadlari prognozi** | **93 924 100** |
| **IV.** | **Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar** | **148 690 402** |
| **VI.** | **shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar** | 41 817 932 |

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-103-11-154-K/23-son qaroriga
2-ilova

## Buvayda tumani mahalliy budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so'mda

| | | |
|---|---|---|
| | **Xarajatlar - jami** | **242 614 502** |
| **1.** | **Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami** | **170 991 558** |
| | *shu jumladan:* | |
| **1.1** | **Maorif** | **47 349 322** |
| | - maktabgacha ta'lim | 28 896 032 |
| | - umumiy ta'lim | 18 453 290 |
| 1.2 | Sog'liqni saqlash | 114 021 272 |
| 1.3 | Madaniyat | 2 607 786 |
| 1.4 | Sport | 6 871 900 |
| 1.5 | Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi» | 29 600 |
| 1.6 | Ijtimoiy ko‘nikma markazlari | 111 678 |
| **2.** | **Iqtisodiyotga xarajatlar** | **18 892 778** |
| | *shu jumladan:* | |
| 2.1 | Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari | 4 000 000 |
| 2.2 | Obodonlashtirish | 8 085 328 |
| 2.3 | Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari | 2 736 042 |
| 2.4 | Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari | 349 233 |
| 2.5 | Veterinariya qo‘mitasi | 1 735 276 |
| 2.6 | "Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari | 1 986 899 |
| **3.** | **Davlat boshqaruv organlarini saqlash** | **25 260 451** |
| **4.** | **Zaxira jamg‘armasi** | **2 151 448** |
| **5.** | **Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi** | **25 318 267** |

## Buvayda tuman mahalliy budjetidan 2024 yilgi hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratilgan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

| | | ming so'm |
|---|---|---|

| T/r | Tumanlar va shaharlar budjetlaridan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi | Summa |
|---|---|---|
| **1** | **Maktabgacha va Maktab ta‘limi bo‘limi** | **44 361 577,0** |
| | shundan | |
| | Maktabgacha ta‘lim muassasalari | 28 896 032,0 |
| | Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan umumta‘lim maktablari | 15 465 545,0 |
| **2** | **Tibbiyot birlashmasi** | **114 021 272,0** |
| **3** | **Madaniyat bo‘limi** | **4 613 772,0** |
| | shundan | |
| | Madaniyat bo‘limi xarajatlari | 1 626 027,0 |
| | Bolalar musiqa va san‘at maktabi | 2 987 745,0 |
| **4** | **Yoshlar siyosati va sport bo‘limi** | **11 995 995,0** |
| | shundan | |
| | Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo‘limlari saqlash xarajatlari | 5 124 095,0 |
| | Bolalar va o‘smirlar sport maktablari | 6 871 900,0 |
| **5** | **Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi** | **1 946 513,0** |
| **6** | **Qishloq xo‘jaligi bo‘limi** | **2 084 509,0** |
| | shundan | |
| | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limlarini saqlash xarajatlari | 1 735 276,0 |
| | Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari | 349 233,0 |
| **7** | **Suv xo'jaligi tashkilotlarini saqlash xarajatlari** | **2 736 042,0** |
| **8** | **Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari** | **1 729 146,0** |
| **9** | **Davlat soliq inspekciyasi** | **4 529 789,0** |
| **10** | **Hokimiyat** | **54 595 887,0** |
| | shundan | |
| | Hokimliklarni saqlash xarajatlari | 2 367 530,0 |
| | Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari | 170 482,0 |
| | Hokimliklarning zahira jamg‘armalari | 2 151 448,0 |
| | Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armalari | 25 318 267,0 |
| | Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati | 214 988,0 |
| | Hokim yordamchilarini saqlash qarajatlari | 5 588 862,0 |
| | Mahalla budjeti | 1 986 899,0 |
| | Oila va xotin qizlar bo'limi | 3 464 253,0 |
| | Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi” | 29 600,0 |
| | Hokimlik ijtimoiy ko‘nikma markazi bo‘limlari | 111 678,0 |
| | Axborot kutubxona markazlari | 1 106 552,0 |
| | Shahar hududidagi shahar ko‘chalari va shahar posyolka ko‘chalari yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash xarajatlari | 4 000 000,0 |
| | Shaharlarni obodonlashtirish | 8 085 328,0 |
| | **Jami** | **242 614 502,0** |
| | | |

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-103-11-154-K/23-son qaroriga
3-ilova

**2024-yil uchun budjet daromadlarining mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha ajratma me’yorlari**

*Foiz hisobida*

| T/R | Shahar va tumanlar nomi | Korxonalar aylanmasidan soliq | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i | Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz soliq | Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq | Jismoniy shaxslardan yer solig‘i | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | Yuridik shaxslar yer solig‘i | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Jarimalar | Boshqa tushumlar (Faqat 3 450 950 daromad kodi bo‘yicha)* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Buvayda tumani | 100 | 50 | 100 | 0 | 20 | 100 | 100 | 50 | 100 | 50 | 50 | 50 | 30 | 100 |

* 3 450 950daromad kodidan tashqari barcha boshqa tushumlarni hisobga oluvchi daromad kodlari bo‘yicha kelib tushgan tushumlar viloyat mahalliy budjetiga to‘liq miqdorda yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-103-11-154-K/23-son qaroriga
4-ilova

**Buvayda tuman mahalliy budjetining 2024 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori**

| | | | ming so'mda |
|---|---|---|---|
| **№** | **Shahar va tumanlar** | Tartibga soluvchi transfert miqdori jami | Shundan,aksiz solig'i tushumlaridan ajratiladigan mablag'lar |
| | **JAMI** | **148 690 402** | **41 817 932** |
| | *shundan* | | |
| 1 | Buvayda tuman | 148 690 402 | 41 817 932 |

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-103-11-154-K/23-son qaroriga
5-ilova

**Buvayda tuman mahalliy budjetining 2024 yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi**

| | | | ming so'mda |
|---|---|---|---|
| **№** | **Hudud nomi** | **Daromad** | **Xarajat** |
| **JAMI** | | **242 614 502,0** | **242 614 502,0** |
| 1 | Buvayda tuman | 242 614 502,0 | 242 614 502,0 |

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-103-11-154-K/23-son qaroriga
6-ilova

| **2024 yilda Buvayda tuman mahalliy budjetida aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori** | | |
|---|---|---|
| | | ming so'mda |
| **T/p** | **Hudud nomi** | **Miqdor** |
| | **JAMI** | **864 000** |
| | *shundan* | |
| 1 | Buvayda tuman | 864 000 |

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-103-11-154-K/23-son qaroriga
7-ilova

Buvayda tuman hokimining **“Buvayda tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida ”gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi yuzasidan

# M A ’ L U M O T N O M A

29.12.2023 yil
qishlog`i

Yangiqo`rg`on

Buvayda tuman hokimining **“Buvayda tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida ”gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi o`rganib chiqildi.

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrdagi 02-1160-sonli xatlarini inobatga olib, Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2023-yil 27 dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 63-sessiya qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

Buvayda tuman hokimining **“Buvayda tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi Adliya Vazirligi tomonidan 18.11.2021 yilda 3333-raqam bilan ro`yxatdan o`tkazilgan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish,yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o`tkazish qoidalarini tasdiqlash to`g`risida”gi 15.11.2021 yildagi 19-mx sonly buyurug`i va qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan deb hisoblayman.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi “O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy sora-tadbirlar to`g`risida”gi qarorining 4-bandiga asosan normativ huquqiy hujjatlar loyihasi tuman hokimligi tomonidan 16.12.2023 yilda O`zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o`tkazilishi uchun joylashtirilgan. Qaror loyihasida jamoatchilik muhokamasi natijalari e’tiborga olingan.

Buvayda tuman hokimining mazkur qarori qabul qilinishidan oldin O`zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yildagi O`RQ-682-sonli “Normativ huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi

Qonunining 26-moddasiga ko`ra Buvayda tuman hokimining normativ tusga ega bo`lgan ushbu qarori loyihasini qonunchilik talablariga muvofiq ekanligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o`tkazishlik uchun Buvayda tumani Adliya bo`limiga taqdim etish lozim bo`ladi.

Loyiha O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq.

**Buvayda tumani hokimligi yuriskonsulti** **B.Raxmonov**

**Buvayda tuman adliya bo`limi**
**boshlig`i N.Ismoilovga**

Buvayda tuman hokimining **“Buvayda tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi O`zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yuidagi “Normativ huquqiy xujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 26-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o`tkazib berishingizni so`rayman.

**Buvayda tuman hokimi** **B.Ibragimov**